

SUDLAR TOMONIDAN KORPORATIV NIZOLARNI HAL ETISHNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI

Xazratqulova Jasmina Nuriddin qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti magistri,

e-mail: jasminakhazratkulova02@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15304418>

Annotatsiya: Ushbu tezisdagi korporativ nizolarni hal etish masalalari yuzasidan qonunchilik normalari qiyosiy tahlil qilinib, korporativ huquqiy munosabatlarni tartibga soluvchi moddiy va protsessual huquq normalarini qo'llash bilan bog'liq sud amaliyotini bixillashtirish, ishlarni ko'rishda yuzaga kelayotgan bo'shliqlar, xatoliklarni bartaraf etish masalalarning qonuniy yechimini topishga yo'naltirilgan taklif va tavsiyalar bayon etiladi.

Kalit so'zlar: Iqtisodiy protsessual kodeksi (IPK), korporativ nizo, da'vo ariza, iqtisodiy sud, ishtirokchi, jamiyat, jamiyat ta'sis hujjatlari, yuridik shaxs joylashgan joy, ulush.

So'ngi yillarda tadbirkorlarning soni ko'payib, faoliyatining samaradorligi oshgan sari ularni tashkil etish, qayta tashkil etish, tugatish, ta'sischi o'rtasida daromadlarni taqsimlash, ichki boshqaruvni amalga oshirish, ijro organlarini saylash kabi korporativ huquqiy munosabatlar ham rivojlanib bormoqda. Bu esa tabiiyki, ishtirokchilar o'rtasida turli kelishmovchiliklar, nizolarning ham paydo bo'lishiga sabab bo'lmoqda. Shunday nizolarning bir turi - korporativ nizolardir.

O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy Protssessual Kodeksi (matnda keyingi o'rinlarda IPK deb yuritiladi)ning 25-moddasiga asosan korporativ nizolar iqtisodiy sudlarga taaluqli.

IPK 30-moddasida tomonidan hal etiladigan korporativ nizolarning turlari sanab o'tilgan bo'lsada, ular tugal emas.

IPK 37-moddasiga ko'ra, korporativ nizolarning alohida sudlovga tegishlilik qoidalari belgilangan bo'lib, mazkur nizolar bo'yicha da'volar yuridik shaxs joylashgan yerdagi sudga taqdim etiladi. Ya'ni korporativ nizolar bo'yicha da'vo arizalar nizo qaysi yuridik shaxs faoliyatidan kelib chiqqan bo'lsa, shu yuridik shaxs joylashgan yerdagi sudga topshiriladi.

IPK 212-moddasida korporativ nizolar bo'yicha ishlar ushbu Kodeksda nazarda tutilgan da'vo ishini yuritishning umumiy qoidalari bo'yicha, mazkur bobda belgilangan xususiyatlar inobatga olingan holda sud tomonidan ko'rib chiqilishi belgilangan.

Biroq, IPK 155-moddasida da'vo arizasini qaytarish asoslari sanab o'tilgan bo'lsada, korporativ nizolar bo'yicha da'vo arizasining ayrim o'ziga xos xususiyatlari e'tiborga olinmagan. IPK 155-moddada sanab o'tilgan asoslar tugal bo'lib, sudya mazkur moddada nazarda tutilmagan asos bo'yicha da'vo arizasini qaytara olmaydi.

Korporativ nizo bo'yicha da'vo arizasiga ushbu Kodeks 151-moddasida nazarda tutilgan da'vo arizasiga ilova qilinadigan hujjatlardan tashqari yuridik shaxsning davlat ro'yxatidan o'tkazilganligini tasdiqlovchi va uning joylashgan yeri (pochta manzili) to'g'risidagi ma'lumotlar ko'rsatilgan hujjatlar, shuningdek, uning ta'sis hujjatlari ilova qilinishi shart. Chunki yuridik shaxs joylashgan yerni tasdiqlovchi hujjat nizoning qaysi sudga tegishligi hamda yuridik shaxs ta'sis hujjatlari esa barcha turdagi korporativ nizolarni hal etishda muhim ro'l o'ynaydi. Mazkur toifadagi ishlar bo'yicha da'vo arizasiga yuridik shaxs joylashgan yerni tasdiqlovchi hujjatning ilova qilinishi sudda ishtirok etuvchi shaxslarni ortiqcha ovvoragarchiligi hamda sudlar tomonidan qonun buzilishlari oldini oladi. Misol uchun, jamiyat

ishtirokchisini ta'sischi safidan chiqarish to'g'risidagi da'vo arizasiga yuridik shaxs davlat ro'yxatidan o'tkazilganligini tasdiqlovchi hujjat hamda yuridik shaxsning ta'sis hujjatlarining ilova qilinishi nafaqat sudlovlik masalasini aniqlash uchun, balki ishni iqtisodiy sudga taaluqliligi masalasini ham oydinlashtiradi. Chunki O'zbekiston Respublikasining "Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar to'g'risida"gi qonuni talablariga binoan bunday da'vo bilan faqatgina jamiyat ustav fondi (ustav kapitali)ning kamida 10 foizidan ortiq ulushga ega bo'lgan ishtirokchi(lar) jamiyatning boshqa ishtirokchisi (lari)ni ishtirokchilar safidan chiqarish to'g'risidagi talabni qo'ya oladilar. Yuridik shaxs ta'sis hujjatlarining da'vo arizasiga ilova qilinishi da'vo talabi bilan chiqayotgan shaxsning mazkur toifadagi ishda da'vogar bo'la olishi masalasini aniqlashtirish uchun asos bo'ladi. Agar da'vo talabi bilan chiqayotgan mazkur shaxs ushbu toifadagi ishda da'vogar bo'la olmasligi aniqlansa, bunday da'vo arizasi IPK 154-moddasiga asosan ish yuritishga qabul qilish rad etiladi.

Yuqoridagilarni inobatga olib xulosa qiladigan bo'lsa, IPKda nazarda tutilgan da'vo ishini yuritishning umumiy qoidalariga korporativ nizolar bo'yicha ish yuritishning ayrim o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda ba'zi bir qo'shimchalar kiritish ehtiyoji mavjudligi ko'zga tashlanadi.

Shu bois, IPK 155-moddasiga uchinchi qism sifatida "Sud ushbu Kodeks yigirma oltinchi bobi talablariga muvofiq bo'lmagan da'vo arizasini qaytaradi" jumalasi, shuningdek, IPK 213-moddasi ikkinchi qismiga korporativ nizo bo'yicha da'vo arizasiga yuridik shaxsning ta'sis hujatlari ilova qilinishi lozimligi kiritilishi kerak.

References:

Используемая литература: Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Корпоратив низолар: тушунчаси, турлари ва уларни судда кўришнинг ўзига хос жиҳатлари. Судьялар ва аҳоли учун амалий қўлланма /М.Саидов. – Тошкент: 2019, 102-140-бетлар
2. Корпоратив низоларни судда кўришга оид айрим масалалар. Судьялар ва аҳоли учун амалий қўлланма /С.Холбаев, М.Саидов. – Тошкент:, 2023. 9-30-бетлар
3. Е.А. Дорожинская. Корпоративное право: курс лекций / Е.А.Дорожинская; Новосибирск: Изд-во СибАГС,2016.— 264 с
4. (<https://lex.uz/docs/-22525>)
5. (<https://lex.uz/ru/docs/-3523891?ONDATE2=22.02.2024&action=compare>)
6. <https://lex.uz/docs/-2453499>.